V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MATEMATIKA INSTITUTI

TUG‘YONOV ZOHID TOLIBOVICH

NOARXIMED NORMALANGAN MAYDONLAR USTIDA DAVRIY O‘LCHOVLAR QURISH

01.01.01 – Matematik analiz
(fizika-matematika fanlari)

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent–2023

UO‘K: 517.98

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences

**V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

MATEMATIKA INSTITUTI

TUG'YONOV ZOHID TOLIBOVICH

NOARXIMED NORMALANGAN MAYDONLAR USTIDA DAVRIY O'LCHOVLAR QURISH

**01.01.01 – Matematik analiz
(fizika-matematika fanlari)**

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent–2023

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, Fan va Innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/FM834 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www. kengash.mathinst.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Ayupov Shavkat Abdullayevich** fizika-matematika fanlari doktori, akademik
Rasmiy opponentlar:	**Kudaybergenov Karimbergen Kadirbergenovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Sattarov Iskandar Abu-aliyevich fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori
Yetakchi tashkilot:	**O'zbekiston Milliy universiteti**

Dissertatsiya himoyasi V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil " 25 " aprel soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 9-uy. Tel.: (+99871)-207-91-40, e-mail: uzbmath@umail.uz, Website: www.mathinst.uz).

Dissertatsiya bilan V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (158-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani Universitet ko'chasi, 9-uy. Tel.: (+99871)-207-91-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil " 11 " aprel kuni tarqatildi.
(2023-yil " 11 " apreldagi 2-raqamli reestr bayonnomasi).

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI V.I. ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI

U.A.Rozikov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, f.-m.f.d., professor

J.K.Adashev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

U.U.Jamilov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida olib borilayotgan ko‘plab ilmiy hamda amaliy tadqiqotlar aksariyat hollarda kvant mexanikasining noarximed modellarini tadqiq qilishni taqozo etadi. p-Adik integrallash nazariyasi noarximed analizning juda muhim qismlaridandir. Integrallash uchun esa taqsimotning xossalari muhim hisoblanadi. Bir necha yuz yillar davomida matematika va nazariy fizika haqiqiy (va undan so‘ng kompleks) sonlar asosida shakllanib kelgan. Ko‘pgina o‘lchov sistemalarida Arximed aksiomasining bajarilishi muhim shart hisoblanadi. Dunyoni p-adik arifmetika va ultrametrik geometriya yordamida tavsiflashni taklif qilish tabiiydir. Taqsimotning davriylik xossasi davriy jarayonlarni tadqiq qilish imkonini beradi. Davriy p-adik taqsimotlar kvant mexanikasining noarximed modellari uchun faza almashishlar nazariyasidagi tadqiqotlarning muhim ob’yektidir.

Hozirgi vaqtda p-adik qiymatli ehtimollik o‘lchovlari katta qiziqish uyg‘otib kelmoqda. Bunday o‘lchovlarning ommalashuviga noarximed qiymatli (xususan, p-adik qiymatli) to‘lqin funksiyalari ishtirok etgan kvant modellarining rivojlanishi turtki bo‘ldi. Noarximed ehtimollik modellarining o‘zi ham alohida qiziqish uyg‘otadi. Xususan, ular “yaxshi, yaxshi, ..., halokat” kabi keskin o‘zgarishli holatlar tavsifi uchun p-adik Bernulli sxemalarida qo‘llaniladi. Bundan tashqari, ushbu o‘lchovlar biologik populyatsiya yo‘q bo‘lib ketganda, rivojlanish dinamikasi standart (Kolmogorov) ehtimollik nazariyasi nuqtai nazaridan “juda yaxshi” bo‘lgan p-adik stoxastik modellarida qo‘llaniladi. Ushbu mavzuning dolzarbligi yuqoridagi misollardan, noarximed normalangan fazolarda o‘lchovlarning keng tatbiqidan kelib chiqadi.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda fundamental fanlarning ilmiy va amaliy tatbiqlarga ega bo‘lgan dolzarb yo‘nalishlariga qiziqish ortib bormoqda. Statistik mexanikaning noarximed muqobillari va noarximed ehtimollik nazariyasi bo‘yicha qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Buning natijasida, ultrametrik fazolardagi tadqiqotlarda salmoqli natijalarga ega bo‘lish muhim vazifalardan biri bo‘lib qoladi. Xususan, ultrametrik statistik fizika va mexanika masalalarini o‘rganishning asosiy ob’ekti sanalgan ultrametrik o‘lchovlar nazariyasining rivojlanishiga alohida e’tibor qaratildi. Matematika fanining ustuvor yo‘nalishlari, ya’ni funksional analiz va matematik fizika kabi muhim yo‘nalishlar bo‘yicha xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqotlar olib borish Fanlar akademiyasi V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatining asosiy vazifasi va yo‘nalishi etib belgilangan[1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi № PF-4947 Farmoni, 2019-yil 9-iyuldagi “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika

---

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-iyuldagi “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi № PQ-4387-son qarori

instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi № PQ-4387-sonli Qarori va 2020-yil 7-maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi № PQ-4708-sonli Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. *p*-Adik sonlar tushunchasini birinchi marta nemis matematigi Genzel (1897) kiritgan. Bunday sonlar ratsional sonlarni *p*-adik (noarximed yoki ultrametrik) norma bo‘yicha to‘ldirish natijasida hosil qilinadi. Hozirgi kunga kelib dunyoda, xususan, Sh.Ayupov, S.Albeverio, U.Roziqov, N.G‘anixo‘jaev, F.Muxammedov, A.Xrennikov, J.Ruiz, D.Gandolfo, B.Omirov, O.Hakimov va boshqa matematiklarning bir qancha ishlarida noarximed maydonlar uchun matematik tahlilning qator yo‘nalishlari keng o‘rganilib kelinmoqda.

1970-yillarda qiymatlari noarximed maydonlarda bo‘lgan o‘lchovlar va integrallash nazariyasi asoslari va umumiy tavsiflari A.S. van Rooy, A.P.Monna va V.Shixovlarning ishlarida keltirilgan. V.Shixovning ishida agar *p*-adik o‘lchov sigma additiv bo‘lsa, u holda bunday o‘lchov diskret o‘lchov bo‘lishi ya’ni faqat sanoqli to‘plamdagina nolga teng bo‘lmasligi keltirilgan. Shu sababli bunday *p*-adik atomik o‘lchovlar bilan mukammal integrallash nazariyasini yaratib bo‘lmaydi. *p*-Adik o‘lchovning sigma additivligi o‘rniga chegaralanganlik shartini olinganda, noarximed integrallash nazariyasi van Rooy va V.Shixovlar tomonidan yaxshi rivojlantirilgan. A.Xrennikov tomonidan *p*-adik butun sonlar to‘plamida translyatsion-invariat o‘lchov mavjud emasligi isbotlangan. Bu esa translyatsion-invariant o‘lchovlardan umumiyroq bo‘lgan *p*-adik davriy o‘lchovlarni tadqiq qilishga turtki bo‘ldi. 1984-yilda V.Vladimirov va I.Volovich tomonidan Arximed aksiomasi bajarilmaydigan (Plank masofalari deb ataluvchi) juda kichik masofalarda fazoni tavsiflash uchun *p*-adik sonlardan foydalanish mumkinligi taklif qilingan. 1987-yilda I.Volovich tor tebranish nazariyasida *p*-adik fazolardan foydalanishni taklif qildi. I.Volovichning “Klassik va kvant gravitatsiyasi” jurnalidagi maqolasi *p*-adik tor tebranishlariga bag‘ishlangan butun bir nashrlar to‘lqinini vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. Noarximed modellarni statistik fizika va noarximed ehtimollar nazariyasida turli xil tatbiqlariga doir ko‘plab maqolalar va bir qator kitoblar nashr etildi. Bu o‘rinda V.Vladimirov, P.Freynd, I.Arefeva, B.Dragovich, E.Vitten, P.Frampton, G.Parizi, E.Marinari, M.Olson va boshqalarning natijalarini ko‘rsatish mumkin.

Haqiqiy qiymatli o‘lchovlar nazariyasida o‘lchovni davom ettirish haqidagi Kolmogorov teoremasi muhim rol o‘ynaydi. Noarximed ehtimollik taqsimotlari uchun bu teoremaning muqobili N.G‘anixo‘jaev, F.Muxamedov va O‘.Roziqovlarning ishida isbotlangan. Bu natija *p*-adik taqsimotlar va tasodifiy jarayonlarning keng sinfini qurish va *p*-adik nazariyaga nisbatan statistik usullarni ishlab chiqish imkonini beradi. Ushbu natijalar Bete panjarasidagi bir qancha *p*-adik modellarni o'rganilishiga asos bo'lib xizmat qildi. Xususan, eng yaqin qo'shnilari o'zaro ta'sirga ega bo'lgan turli modellar uchun davriy *p*-adik Gibbs o'lchovlarining bir nechta ko'rinishlari qurilgan. Bu o'rinda D.Gandolfo, J.Ruiz, L.Liao, U.Roziqov, N.G'anixo'jaev, F.Muxamedov, O.Hakimov, M.Saburov va boshqalarning natijalarini ko'rsatish mumkin.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqoqt muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.

Dissertatsiya tadqiqoti Matematika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasidagi F4-FA-F013 "Noassotsiativ va operatorlar algebralari, dinamik sistemalar, hamda ularning statistik fizika va populyatsion biologiyaga tatbiqlari" (2012-2016-yillar), YoF-4-3+YoF-4-4 "Sanoqli graflarda spin sistemalarning ehtimollik o'lchovlari va Li algebralarining tasvirlari bilan assotsirlangan Leybnits algebralari" (2016-2017-yillar) fundamental loyihalari doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi qiymatlari *p*-adik sonlar maydonida bo'lgan *p*-adik davriy taqsimotlarning yangi sinflarini qurish va topilgan taqsimotlar uchun chegaralanganlik shartlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

haqiqiy sonlar maydonida haqiqiy davriy o'lchovlarning namunasini qurish (bunda Arximed aksiomasi bajariladi);

Arximed aksiomasi bajarilmaydigan (noarximed) maydonlarda *p*-adik davriy o'lchovlarning namunasini qurish;

p-adik Dirak o'lchovlarining davriylik shartini tadqiq etish;

p-adik Bernuli taqsimotlarining davriylik shartini tadqiq etish;

p-adik taqsimotlar va *p*-adik Gibbs o'lchovlarining chegaralanganlik shartlarini aniqlash;

Tadqiqotning ob'yekti. *p*-Adik va haqiqiy o'lchovlar, davriy o'lchovlar, Bernulli taqsimotlari, Dirak o'lchovlari, *p*-adik Izing modellari.

Tadqiqotning predmeti. *p*-adik Dirak o'lchovining davriyligi, Bernulli taqsimotlarining davriyligi, *p*-adik taqsimotlarning chegaralanganlik shartlari, panjaralardagi *p*-adik Gibbs o'lchovlarining chegaralanganlik shartlari.

Tadqiqotning usullari: Dissertatsiyada (*p*-adik) o'lchovlar nazariyasi, gruppalar nazariyasi, bo'laklash nazariyasi metodlari, noarximed analiz, (*p*-adik) sonlar nazariyasi hamda ehtimollik nazariyasi metodlaridan foydalanilgan. Bundan tashqari statistik mexanika usullari rivojlantirilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

noarximed va Arximed maydonlarida davriy o'lchov tushunchasi kiritilib, $[0;1)$ to'plamda haqiqiy davriy o'lchov qurilgan hamda uning har qanday bo'laklashlari uchun haqiqiy davriy o'lchov mavjudligining zaruriy sharti isbotlangan;

p-adik butun sonlar to'plamining ba'zi bo'laklashlari uchun *p*-adik davriy taqsimotlarning umumiy ko'rinishi topilgan hamda *p*-adik butun sonlar to'plamining har qanday bo'laklashlari uchun *p*-adik davriy taqsimotlar mavjud bo'lishining zaruriy sharti isbotlangan;

p-adik butun sonlar to‘plamining ko‘pi bilan sanoqli bo‘laklashlariga nisbatan Bernulli taqsimotlari davriy bo‘lmasligi hamda topilgan *p*-adik taqsimotlarning chegaralanganligi isbotlangan;

p-adik butun sonlar to‘plamida aniqlangan ma’lum *p*-adik taqsimotlardan foydalanib, yangi taqsimot qurish usullari bayon qilingan.

Tadqiqotning amaliy natijalari. Haqiqiy va *p*-adik taqsimotlarning davriyligini tekshirish usullari statistik fizikaning bir nechta modellari uchun *p*-adik Gibbs o‘lchovlari to‘plamini tavsiflashda qo‘llanilgan.

p-adik butun sonlar to‘plamining ba’zi bo‘laklashlariga nisbatan davriy taqsimotlarning chegaralanganligidan Keli daraxtida berilgan yaqin qo‘shnilari bo‘yicha ta’sirga ega fizik modellar uchun Gibbs o‘lchovlarini qurishda foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Noarximed funksional analiz, sonlar nazariyasi, *p*-adik ehtimollik o‘lchovlar nazariyasi usullaridan foydalangan holda matematik mulohazalarning qat’iyligi bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati haqiqiy va *p*-adik taqsimotlarning davriyligini tekshirish usullari statistik fizikaning ba’zi modellari uchun *p*-adik Gibbs o‘lchovlari to‘plamini tavsiflashda qo‘llanilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati *p*-adik davriy taqsimotlarning chegaralanganligi yaqin qo‘shnilari bo‘yicha ta’sirga ega modellar uchun Gibbs o‘lchovlarini qurish imkonini berganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Noarximed normalangan maydonlarda davriy o‘lchovlar qurish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

Arximed maydonlarida qurilgan haqiqiy davriy taqsimotlar va noarximed *p*-adik butun sonlar to‘plamining ko‘pi bilan sanoqli bo‘laklashlariga nisbatan Bernulli taqsimotlari davriy bo‘lmasligi hamda topilgan *p*-adik taqsimotlarning chegaralanganligidan G0003247 raqamli “Panjarali modellar renormalizatsion gruppasiga mos xaotik va qorishma *p*-adik dinamik sistemalar” mavzusidagi xorijiy grant loyihasida Keli daraxtidagi eng yaqin qo‘shnilari bo‘yicha ta’sirlashuvchi turli modellar uchun *p*-adik Gibbs o‘lchovlarini topishda foydalanilgan (Birlashgan Arab Amirliklari universitetining 2022-yil 1-iyundagi ma’lumotnomasi, BAA). Ilmiy natijaning qo‘llanishi umumlashgan Gibbs o‘lchovlarini qurish imkonini bergan;

p-adik butun sonlar to‘plamining bo‘laklashlari uchun *p*-adik davriy taqsimotlarning umumiy ko‘rinishi va *p*-adik butun sonlar to‘plamining har qanday bo‘laklashlari uchun *p*-adik davriy taqsimotlar mavjudligidan FRGS 17-027-0593 raqamli “Xaos faza almashishini keltirib chiqaradi: *p*-adik Gibbs o‘lchovlarining yangi sinfini topishda *p*-adik dinamik sistema usuli” mavzusidagi xorijiy grant loyihasida statistik fizikaning bir nechta modellariga mos *p*-adik davriy Gibbs o‘lchovlari to‘plamini tavsiflashda foydalanilgan (Malayziya Xalqaro Islom universitetining 2022-yil 3-iyundagi ma’lumotnomasi, Malayziya). Ilmiy natijaning qo‘llanishi noarximed fizik sistemalar uchun faza almashishini tavsiflovchi parametrlarni topish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ish chop etilgan bo‘lib, ulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining falsafa doktori dissertatsiyalari (PhD) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 3 tasi xorijiy va 4 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 85 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan, ushbu dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi berilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi ko‘rsatilgan, tadqiqot maqsadi va vazifalari keltirilgan, tadqiqot ob’yekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“$\boldsymbol{p}$-Adik o‘lchovlar va ularning davriyligi”** deb nomlanuvchi birinchi bobida dissertatsiyada olingan natijalarni yoritishda foydalaniladigan ba’zi ma’lum faktlar, asosiy tushunchalar va ta’riflar keltirilgan.

Biror p tub son berilgan bo‘lsin. Har qanday $x \neq 0$ ratsional sonni

$$x = p^r \frac{m}{n}$$

ko‘rinishida tasvirlash mumkin. Bunda m – musbat butun son, $r, n \in \mathbb{Z}$. n va m o‘zaro tub sonlar esa p bilan ham o‘zaro tub: $EKUB(m,n) = 1$, $EKUB(p,n) = 1, \mathrm{E}KUB\,(p,m) = 1$. Ushbu x sonining p-adik normasi quyidagicha aniqlanadi

$$|x|_p = \begin{cases} p^{-r} & agar \quad x \neq 0, \\ 0 & agar \quad x = 0. \end{cases}$$

Bu norma $|x+y|_p \leq \max\{|x|_p, |y|_p\} -$ *kuchli uchburchak tengsizligi*ni qanoatlantirgani uchun noarximed normasi bo‘ladi.

Quyidagi tasdiqlar bu tengsizlikdan bevosita kelib chiqadi:

1) agar $|x|_p \neq |y|_p$ bo‘lsa, u holda $|x \pm y|_p = \max\{\,|x|_p, |y|_p\}$;

2) agar $|x|_p = |y|_p$ bo‘lsa, u holda $|x \pm y|_p \leq |x|_p$.

Ostrovskiy teoremasiga ko‘ra ratsional sonlar maydonida trivial bo‘lmagan quyidagi (noekvivalent) normalarnigina kiritish mumkin: birinchidan, har bir p tub son uchun $|\cdot|_p$ normani, ikkinchidan, odatdagi absolyut qiymat $|\cdot|$. Ta’kidlab o‘tamizki, ratsional sonlar maydoni p-adik normaga nisbatan to‘la emas. Ratsional sonlar maydonini p-adik norma bo‘yicha to‘ldirganda p-adik sonlar maydoni – $\mathbb{Q}_p$ hosil bo‘ladi. Har qanday p-adik $x \neq 0$ sonni yagona usulda

$$x = p^{\gamma(x)}(x_0 + x_1 p + x_2 p^2 + \cdots)$$

kanonik ko‘rinishida tasvirlash mumkin bunda $\gamma(x) \in \mathbb{Z}$ va x_j lar butun sonlar $x_0 > 0$, $0 \leq x_j \leq p-1$ shartlarni qanoatlantiradi. Bu holda $|x|_p = p^{-\gamma(x)}$. $\mathbb{Z}_p = \{x \in_p : |x|_p \leq 1\}$ to‘plamning elementlari *p-adik butun sonlar* deb ataladi.

Shunday qilib, har qanday p-adik sonni qator ko‘rinishida

$$x = p^{\gamma(x)} \sum_{n=0}^{\infty} x_n p^n,$$

kabi tasvirlash mumkin bunda x_n-butun sonlar, $0 \leq x_n \leq p-1, \gamma(x) \in \mathbb{Z}$. Ta’kidlab o‘tamizki, bunday tasvirlash har bir x uchun yagonadir. Agar $\gamma(x) \geq 0$ bo‘lsa, u holda x soni p-adik butun son bo‘ladi.

$\mathbb{Q}_p$ metrik fazoda ochiq to‘plamlar bazisi sifatida quyidagi to‘plamlar sistemasini olish mumkin:

$$a + p^n\mathbb{Z}_p = \{x \in \mathbb{Q}_p : |x-a|_p \leq \tfrac{1}{p^n}\}, \text{ bunda } a \in \mathbb{Q}_p, \text{ va } n \in \mathbb{Z}.$$

$a \in \mathbb{Q}_p, n \in \mathbb{Z}$ lar uchun $a + p^n\mathbb{Z}_p$ to‘plamlar *intervallar* deyiladi va $a + (p^n)$ kabi belgilanadi. Aytib o‘tish kerakki, $\mathbb{Q}_p$ ning ochiq qism to‘plami faqat va faqat chekli sondagi intervallar birlashmasidan iborat bo‘lsagina kompakt bo‘ladi. Bunday qism to‘plamlar *kompakt-ochiq* deb ataladi.

1-ta’rif. *X to‘plamning kompakt-ochiq qism to‘plamlariga p-adik sonlarni mos qo‘yuvchi additiv μ akslantirishga p-adik taqsimot deyiladi. Chegaralangan p-adik taqsimotga o‘lchov deyiladi.*

μ akslantirishning chegaralanganligi $sup\{\,|\mu(V)|_p : V \subset X\} < \infty$ ni anglatadi. Aytaylik $\mathbb{Z}_p$ to‘plam uchun biror $\xi = \{K^{(i)}, i \in I\} -$ bo‘laklash bo‘lsin ya’ni

$$\mathbb{Z}_p = \bigcup_{i \in I} K^{(i)}, K^{(i)} \cap K^{(j)} = \emptyset, i \neq j.$$

2-ta’rif. *$\mathbb{Z}_p$ to‘plamdagi μ taqsimot har qanday $a \in K^{(i)}$ uchun $\mu(a + (p^n)) = \lambda_i^{(n)} (\forall n \in \mathbb{N},\ \lambda_i^{(n)} \in \mathbb{Q}_p)$ munosabatni qanoatlantirsa, bu taqsimotga ξ-davriy taqsimot deyiladi. Ya’ni tayin n uchun $\mu(a + (p^n))$ taqsimotning qiymati faqat a ning qaysi sinfga mansubligiga bog‘liq.*

Endi $\mathbb{Q}_p$ da biror kompakt-ochiq X qism-fazo berilgan bo‘lsin. Quyidagi teorema ma’lum:

1-teorema. *X dagi intervallar to‘plamini $\mathbb{Q}_p$ maydonga akslantiruvchi har qanday μ akslantirish uchun ixtiyoriy $a + (p^n) \subset X$ da*

$$\mu\big(a+(p^n)\big)=\sum_{b=0}^{p-1}\mu\big(a+bp^n+(p^{n+1})\big)$$

tenglik o‘rinli bo‘lsa, ushbu akslantirishni X dagi p-adik taqsimotgacha yagona ravishda davom etirish mumkin.

Birinchi bobda $\mathbb{Z}_p$ ning ba’zi bo‘laklashlari uchun p-adik taqsimotlarning umumiy ko‘rinishi berilgan. Birinchi bobning asosiy natijasi quyidagi teoremalardan iborat:

2-teorema. 1) *Har qanday $p\mathbb{Z}_p$-davriy p-adik taqsimot quyidagi ko‘rinishga ega:*

$$\mu\big(a+(p^n)\big)=\frac{\lambda_i^{(1)}}{p^{n-1}},$$

bunda $a\in K^{(i)}, n\in\mathbb{N}$ va $\lambda_i^{(1)}\in\mathbb{Q}_p$, $i=0,1,\dots,p-1$;

2) *Har qanday $p^2\mathbb{Z}_p$ - davriy p- adik taqsimot quyidagi ko‘rinishga ega:*

$$\mu(a+(p^n))=\begin{cases}\frac{\lambda_i^{(2)}}{p^{n-2}}, & agar\ n\geq 2,\\ \sum_{m=0}^{p-1}\lambda_{i+mp}^{(2)}, & agar\ n=1;\end{cases},$$

bunda $a\in K^{(i)}, n\in\mathbb{N}$ va $\lambda_i^{(2)}\in\mathbb{Q}_p$, $i=0,1,\dots,p^2-1$.

3-teorema. *Har qanday L_k-davriy p- adik taqsimot quyidagi ko‘rinishga ega:*

$$\lambda_i^{(n)}=\begin{cases}\frac{\lambda_i^{(k+1)}}{p^{n-k-1}}, & agar\ \ n>k,\\ \sum_{j=0}^{p-1}\lambda_j^{(k+1)}, & agar\ \ n=k,\\ p^{k-n}\lambda_i^{(k)}, & agar\ \ n<k;\end{cases}$$

bunda $a\in L^{(i)}$, $n\in\mathbb{N}$ va $\lambda_i^{(k+1)}\in\mathbb{Q}_p$, $i=0,1,\dots,p-1$.

Dissertatsiyaning “***p*-Adik taqsimotlar va o‘lchovlarning davriyligi**” deb nomlanuvchi ikkinchi bobi p-adik davriy taqsimotlar va p-adik davriy o‘lchovlarni o‘rganishga bag‘ishlangan.

Ikkinchi bobning birinchi paragrafida Dirak o‘lchovlarining K-davriyligi tadqiq etiladi. Berilgan $\alpha\in\mathbb{Z}_p$ uchun $\lambda\neq 0$ bo‘lganda μ_α Dirak o‘lchovi quyidagicha aniqlanadi:

$$\mu_\alpha(U) = \begin{cases} \lambda, & \text{a}gar\ \alpha \in U, \\ 0, & aks\ holda. \end{cases}$$

$\mathbb{Z}_p$ to‘plamning bo‘laklashi sifatida quyidagini qaraymiz:

$$K = \{K^{(1)}, K^{(2)}\}, \qquad K^{(1)} = \{x: |x|_p = 1\}, \qquad K^{(2)} = \{x: |x|_p < 1\}.$$

α nuqtaning $K^{(1)}$ yoki $K^{(2)}$ to‘plamga tegishli bo‘lishiga qarab ikkita hol mavjud. Bundan kelib chiqib, quyidagi lemmalarning isboti keltirilgan:

1-lemma. *Agar $\alpha \in K^{(1)}$ bo‘lsa, u holda*

1) $n \geq 2$ *yoki* $n = 1, p \neq 2$ *da* $|\alpha - a|_p > \frac{1}{p^n}$ *shartni qanoatlantiruvchi* $a \in K^{(1)}$ *mavjud;*

2) $n = 1, p = 2$ *da* $|\alpha - a|_p > \frac{1}{p}$ *shartni qanoatlantiruvchi* $a \in K^{(1)}$ *mavjud emas.*

2-lemma. *Agar $\alpha \in K^{(2)}$ bo‘lsa, u holda*

1) $n \geq 2$ *da* $|\alpha - a|_p > \frac{1}{p^n}$ *shartni qanoatlantiruvchi* $a \in K^{(2)}$ *mavjud;*

2) $n = 1$ *da* $|\alpha - a|_p > \frac{1}{p}$ *shartni qanoatlantiruvchi* $a \in K^{(2)}$ *mavjud emas.*

Va nihoyat, isbotlangan lemmalardan va taqsimotning xossasidan foydalanib, quyidagi teorema isbotlangan:

4-teorema. *$\mathbb{Z}_p$ to‘plamning $K = \{K^{(1)}, K^{(2)}\}$ bo‘laklashi berilgan bo‘lsin, bunda $K^{(1)} = \{x: |x|_p = 1\}$ va $K^{(2)} = \{x: |x|_p < 1\}$. U holda K-davriy Dirak o‘lchov mavjud emas.*

$\mathbb{Z}_p$ ning umumiyroq bo‘laklashlari uchun p-adik davriy taqsimotlar tadqiq qilingan.

Ikkinchi bobning ikkinchi va uchinchi paragraflarida Bernulli taqsimotlari o‘rganilgan. Bir nechta Bernulli ko‘phadlarini keltirish mumkin:

$$B_0(x) = 1,$$

$$B_1(x) = x - \frac{1}{2},$$

$$B_2(x) = x^2 - x + \frac{1}{6},$$

$$B_3(x) = x^3 - \frac{3}{2}x^2 + \frac{1}{2}x, \ldots$$

Biror nomanfiy k butun soni uchun $\mu_{B,k}$ akslantirishni $a + (p^n)$ intervallarda

$$\mu_{B,k}\big(a + (p^n)\big) = p^{n(k-1)} B_k\left(\frac{a}{p^n}\right).$$

formula yordamida aniqlaymiz. $\mu_{B,k}$ akslantirish *k-Bernulli taqsimoti* deb ataladi.

Quyidagi teoremaning isboti keltirilgan:

5-teorema. *$\mu_{B,k}$ funksiyani $\mathbb{Z}_p$ dagi taqsimotgacha davom ettirish mumkin.*

Dastlabki bir nechta $B_k(x)$ ko‘phadlar uchun quyidagi taqsimotlarni hosil qilish mumkin:

$$\mu_{B,0}\big(a+(p^n)\big)=p^{n(0-1)}B_0\left(\frac{a}{p^n}\right)=p^{-n}\cdot 1=\frac{1}{p^n},$$

$$\mu_{B,1}(a+(p^n))=p^{n(1-1)}B_1\left(\frac{a}{p^n}\right)=1\cdot B_1(\frac{a}{p^n})=\frac{a}{p^n}-\frac{1}{2},$$

$$\mu_{B,2}(a+(p^n))=p^{n(2-1)}B_1\left(\frac{a}{p^n}\right)=p^n(\frac{a^2}{p^{2n}}-\frac{a}{p^n}+\frac{1}{6}).$$

$\mu_{B,0}$ ni Xaar taqsimoti, $\mu_{B,1}$ ni Mazur taqsimoti deb atalishini eslatib o‘tamiz.

Shundan so‘ng, Bernulli taqsimotlarini $\mathbb{Z}_p$ to‘plamning $\xi=\{K^{(i)},i\in I\}$ bo‘laklashi ya’ni $i\neq j$ da

$$\mathbb{Z}_p=\bigcup_{i\in I}K^{(i)},K^{(i)}\cap K^{(j)}=\emptyset$$

uchun ξ-davriyligini tadqiq qilish maqsadida quyidagi teorema isbotlangan:

6-teorema. *$\mu\big(a+(p^n)\big)$ akslantirish quyidagi ko‘rinishda bo‘lsin*

$$\mu\big(a+(p^n)\big)=f_n(a).$$

$x\in\mathbb{Z}_p$ larda aniqlangan $f_n(x)$ akslantirish uchun har qanday $c\in\mathbb{Q}_p$ da $\{f_n^{-1}(c)\}$ to‘plamning quvvati ko‘pi bilan sanoqli bo‘lsa, u holda μ akslantirishni ξ-davriy qiladigan sanoqli yoki chekli ξ bo‘laklash mavjud emas.

$\mu_{B,k}$ Bernulli taqsimotlari ξ-davriy bo‘lishi uchun

$$p^{n(k-1)}B_k\left(\frac{a}{p^n}\right)=\lambda_i^{(n)},a\in K^{(i)}$$

bo‘lishi kerak. Biroq,

$$B_k\left(\frac{a}{p^n}\right)=p^{-n(k-1)}\lambda_i^{(n)}$$

tenglamaning a yechimlari soni chekli. Shuning uchun, ixtiyoriy i da $K^{(i)}$ ning elemetlari ko‘pi bilan sanoqli bo‘ladi. Demak, $\mu_{B,k}$ Bernulli taqsimotlari ξ-davriy bo‘ladigan chekli yoki sanoqli ξ bo‘laklash mavjud emas.

Ko‘rish mumkinki, 2-teoremadagi va 3-teoremadagi barcha taqsimotlar chekli bo‘laklashlardan hosil qilinadi. Shuning uchun $p\mathbb{Z}_p$-davriy, $p^2\mathbb{Z}_p$-davriy va L_k-davriy taqsimotlar orasida Bernulli tavsimotlari mavjud emas.

$\mathbb{Z}_p$ to‘plamni shunday $\xi=\{K^{(i)},i\in I\}$ bo‘laklashini topish mumkinki, $\mu_{B,k}$ Bernulli taqsimotlari ξ davriy bo‘ladi. $K^{(i)}$ lar sifatida quyidagi to‘plamlarni olamiz:

$$K^{(c)} = \bigcup_{n} \left\{a \in \mathbb{Z}_p : B_k\left(\frac{a}{p^n}\right) = c\right\}, c \in \mathbb{Q}_p,$$

ya'ni

$$\mathbb{Z}_p = \bigcup_{c \in \mathbb{Q}_p} K^{(c)}$$

Ushbu

$$p^{n(k-1)} B_k\left(\frac{a}{p^n}\right) = \lambda_n^{(c)}$$

tenglamalardan bunaqa taqsimotlarning koʻrinishini ham aniqlash mumkin:

$$\lambda_n^{(c)} = p^{n(k-1)} \cdot c.$$

Dissertatsiyaning **"Panjaralardagi *p*-adik taqsimotlar"** deb nomlanuvchi uchinchi bobida $\mathbb{Z}^d$ panjarada p-adik Gibbs taqsimoti va Bete panjarasida (Keli daraxtida) p-adik taqsimot tushunchalari kiritiladi

$x = (x_1, \ldots, x_d), x_i \in Z, i = 1, \ldots, d$ nuqtalar toʻplamini ya'ni d-oʻlchamli $\mathbb{Z}^d$ butun sonli panjarani qaraylik. Bunda metrika

$$\rho_1(x'; x'') = \max_{1 \le i \le d} |x'_i - x''_i|$$

koʻrinishida yoki unga yaqinlashish boʻyicha ekvivalent boʻlgan

$$\rho_2(x'; x'') = \sum_{i=1}^{d} |x'_i - x''_i|$$

kabi kiritiladi.

Agar $x, y \in \mathbb{Z}^d$ nuqtalar uchun $\rho_2(x; y) = 1$ oʻrinli boʻlsa, u holda x va y nuqtalar *qoʻshni nuqtalar* deb ataladi va $< x, y >$ kabi belgilanadi.

$\Phi = \{-1, +1\}$ spin qiymatlar toʻplami boʻlsin. Biror natural n soni uchun

$$M_n = \{x = (x_1, \ldots, x_d), x_i \ge 0, i = 1, \ldots, d : \rho_1(x, x^0) \le n\}$$

toʻplam markazi x^0 da boʻlgan *fundamental kvadrat* deb ataladi. $\mathbb{Z}^d$ ning M_n kvadratga tegishli boʻlmagan va M_n ning ba'zi nuqtalariga qoʻshni boʻlgan barcha nuqtalarini M_n *kvadratning konturi* deb ataladi va ∂M_n kabi belgilanadi. $\mathbb{Z}^d$ da aniqlangan $x \in \mathbb{Z}^d \to \sigma(x) \in \Phi$ funksiya σ *konfiguratsiya* deb ataladi. σ ning har qanday $V \subset Z^d$ qism toʻplamdagi cheklovini $\sigma(V)$ deb belglaymiz, ya'ni $\sigma(V) = \{\sigma(x), x \in V\}$. M_n dagi barcha konfiguratsiyalar toʻplamini Ω_n bilan, $\mathbb{Z}^d$ dagi barcha konfiguratsiyalar toʻplamini Ω bilan belgilaymiz. Izing modeli uchun *p-adik gamiltonian*

$H(\sigma) = -J \sum_{<x,y>} \sigma(x)\sigma(y),$ kabi aniqlanadi bunda $|J|_p \le \frac{1}{p}$.

Izing modeli uchun M_n kvadratdagi $H_n(\sigma|\sigma')$ *shartli p-adik gamiltonian*

$$H_n(\sigma|\sigma') = -J\sum_{<x,y>_{x,y\in M_n}} \sigma(x)\sigma(y) - J\sum_{<x,y>_{x\in M_n, y\in\partial M_n}} \sigma(x)\sigma'(y),$$

ko‘rinishga ega bunda $|J|_p \leq \frac{1}{p}$.

$a \in \mathbb{Q}_p$ va $r > 0$ uchun $B(a,r) = \{x \in \mathbb{Q}_p : |x-a|_p < r\}$ belgilash kiritamiz.

p-*Adik logarifm* yaqinlashish sohasi $x \in B(1,1)$ bo‘lgan

$$\log_p(x) = \log_p(1+(x-1)) = \sum_{n=1}^{\infty} (-1)^{n+1}(x-1)^n n,$$

qator bilan beriladi.

p-*Adik eksponenta* yaqinlashish sohasi $x \in B(0, p^{-1/(p-1)})$ bo‘lgan

$$\exp_p(x) = \sum_{n=0}^{\infty} x^n n!,$$

qator bilan beriladi.

M_n kvadratda σ va $\mathbb{Z}^d \backslash M_n$ da σ' konfiguratsiya uchun *shartli Gibbs taqsimoti*

$$\mu_n(\sigma|\sigma') = \frac{\exp_p\left(-H_n(\sigma|\sigma')\right)}{\sum_{\sigma\in\Omega_n} \exp_p\left(-H_n(\sigma|\sigma')\right)}$$

kabi aniqlanishini eslatib o‘tamiz.

Quyidagi konfiguratsiyalarni qaraymiz:

$$\sigma^+ = \{\sigma(x) \equiv 1\}, \sigma^- = \{\sigma(x) \equiv -1\}.$$

M_n kvadratda Ω dagi biror tayin σ konfiguratsiya uchun ikkita σ^+ va σ^- chegaraviy shartlarda mos ravishda ikkita p-adik Gibbs shartli taqsimotlarini aniqlaymiz

$$\mu_n^\varepsilon(\sigma) = \mu(\sigma(M_n)|\sigma^\varepsilon(\mathbb{Z}^d\backslash M_n)) = \frac{\exp_p(-H_n^\varepsilon(\sigma))}{z_n^\varepsilon}, \varepsilon = -, +$$

bunda

$$H_n^\varepsilon(\sigma) = -J \sum_{<x,y>_{x,y\in M_n}} \sigma(x)\sigma(y) - \varepsilon J \sum_{<x,y>_{x\in M_n, y\in\partial M_n}} \sigma(x)$$

$$va \qquad z_n^\varepsilon = \sum_{\sigma\in\Omega_n} \exp_p(-H_n^\varepsilon(\sigma)).$$

3-lemma. *Agar* $p \neq 2$, $|J|_p \leq \frac{1}{p}$ *bo‘lsa, u holda* $|H(\sigma)|_p \leq \frac{1}{p}$.

4-lemma. *Agar* $p \neq 2$ *bo‘lsa, u holda* $z_n^+ = z_n^-$ *va* $|z_n^+|_p = |z_n^-|_p = 1$.

7-teorema. *Agar* $p \neq 2$ *va* $\lim_{n\to\infty} \mu_n^{\pm}(\sigma)$ *limitlar mavjud bo'lib,* $\mu^{\pm}$ *ga teng bo'lsa, u holda* $\mu^{\pm} -$ *p-adik taqsimotlar turlicha bo'ladi. Bundan tashqari, har qanday* $r \in N$ *uchun* $|\mu^{+}(\sigma) - \mu^{-}(\sigma)|_p = |J|_p \cdot p^{-r}$ *tenglikni qanoatlantiruvchi* σ *konfiguratsiya mavjud bo'ladi.*

Ushbu taqsimotlarning chegaralanganligi ham tekshirilgan.

8-teorema. *Izing modeli uchun Gibbs taqsimotlari chegaralangan bo'lishi uchun* $p \neq 2$ *bo'lishi zarur va yetarli.*

Uchinichi bobning uchinchi paragrafi Keli daraxtida haqiqiy Gibbs o'lchovlarining ba'zi metodlaridan foydalanib, p-adik butun sonlar to'plamida bir nechta p-adik taqsimotlar va o'lchovlar qurishga bag'ishlangan. Keli yarimdaraxti uchun odatdagi leksikografik tartib $\prec$ kiritilgan.

$\pi = \{x^0 = x_0 < x_1 < \cdots\}$ yo'lga

$$t = t(\pi) = \sum_{n=0}^{\infty} i_n p^n, \quad t \in \mathbb{Z}_p$$

p-adik sonni mos qo'yamiz.

Ushbu moslik o'zaro bir qiymatli bo'ladi. Bunda tashqari $\prec$ qisman tartibdan $\mathbb{Z}_p$ da qisman tartib kiritish uchun ham foydalanish mumkin: ya'ni, agar $t_1, t_2 \in \mathbb{Z}_p$ sonlarga mos keluvchi π_1, π_2 yo'llar uchun $\pi_1 \prec \pi_2$ o'rinli bo'lsa, u holda $t_1 \prec t_2$ deymiz.



1-chizma. Uchinchi tartibli Keli yarimdaraxti. Qalin chiziq bilan belgilangan π yo'l 121… ketma-ketlik bilan ifodalanadi. Bu yo'ldan chapda (mos ravishda o'ngda) μ taqsimot μ_1 bilan (mos ravishda μ_2 bilan) ustma-ust tushadi.

Quyidagi teorema isbotlangan:

9-teorema. $i_0 i_1 i_2 \dots$ *ketma-ketlik bilan ifodalangan* $\pi = \{x^0 = x_0 < x_1 < \cdots\}$ *yo'l berilgan bo'lsin. Agar* $\mathbb{Z}_p$ *dagi* μ_1, μ_2 *taqsimotlar uchun* $\mu_1 \neq \mu_2$ *bo'lib, barcha* $n \leq m(a,\pi) + 1$ *larda* $\mu_1(a + (p^n)) = \mu_2(a + (p^n))$ *o'rinli bo'lsa, u holda* $\mathbb{Z}_p$ *dagi intervallarda quyidagicha aniqlangan* μ *taqsimot mavjud:*

$$\mu\big(a + (p^n)\big) = \begin{cases} \mu_1\big(a + (p^n)\big), \quad agar \quad \pi_a \prec \pi, \pi_a \cap \pi = \emptyset \\ \qquad yoki \qquad \pi_a \cap \pi \neq \emptyset, \quad n \leq m, \\ yoki \quad \pi_a \cap \pi \neq \emptyset, \quad n \geq m + 1, a_{m+1} < i_{m+1}, \\ \mu_2(a + (p^n)), \quad agar \quad \pi \prec \pi_a, \pi_a \cap \pi = \emptyset \\ yoki \quad \pi_a \cap \pi \neq \emptyset, \quad n \geq m + 1, a_{m+1} > i_{m+1}, \end{cases}$$

bunda $m = m(a,\pi)$ *va* π_a *yo'l* $a \in \mathbb{Z}_p$ *nuqtani tasvirlaydi (1-chizmaga qarang).*

Quyidagi teoremada berilgan taqsimotlardan foydalanib, yangi taqsimot qurish mumkinligi keltirilgan.

10-teorema. $k \in \mathbb{N}$ *va* $\mathbb{Z}_p$ *da* $\{\nu_t : t \in W_k\}$ *taqsimotlar oilasi berilgan bo'lsin. Agar shunday* $t, s \in W_k (t \neq s)$ *topilib, biror* $c + (p^{n_0})$ $(n_0 \geq k)$ *interval uchun* $\nu_t(c + (p^{n_0})) \neq \nu_s(c + (p^{n_0})$ *o'rinli bo'lsa, u holda* $\mathbb{Z}_p$ *da har bir* $t \in W_k$ *uchun* ν_t *dan farqli* $\mu^{(k)} = \mu^{(k)}[\nu_t, t \in W_k]$, *taqsimot mavjud.*

Quyidagi teoremada 9 va 10-teoremalarda qurilgan p-adik taqsimotlarning chegaralanganlik shartini keltirib o'tamiz.

11-teorema. *Quyidagi tasdiqlar o'rinli.*

1. 9-*teoremada keltirilgan* μ *taqsimot chegaralangan bo'lishi uchun,* μ_1 *va* μ_2 *taqsimotlar chegaralangan bo'lishi zarur va yetarli.*

2. 10-*teoremada keltirilgan* $\mu^{(k)}$ *taqsimot chegaralangan bo'lishi uchun, har qanday* $t \in W_k$ *va* $n \geq k$ *da* $\nu_t(a + (p^n))$ *chegaralangan bo'lishi zarur va yetarli.*

XULOSA

Dissertatsiya noarximed maydonlarida davriy taqsimotlarni qurishga, taqsimotlarning chegaralanganligini o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, quyidagi natijalarga erishilgan:

davriy p-adik va davriy haqiqiy taqsimotlar tushunchalari kiritilgan bo‘lib, butun p-adik sonlar to‘plamining ayrim bo‘laklashlari uchun davriy p-adik taqsimotlarning umumiy ko‘rinishi topilgan;

[0;1) to‘plamning aniq bir bo‘laklashi uchun davriy haqiqiy o‘lchovlarning umumiy ko‘rinishi topilgan. Davriy haqiqiy o‘lchovlar mavjud bo‘lmaydigan [0;1) to‘plamning bo‘laklashlariga misollar keltirilgan;

Dirak o‘lchovining K-davriyligi tushunchasi kiritilgan bo‘lib, K-davriy Dirak o‘lchovlari mavjud emasligi isbotlangan. p-Adik butun sonlar to‘plamining umumiyroq bo‘laklashlari uchun davriy p-adik taqsimotlarning umumiy ko‘rinishi topilgan;

butun p-adik sonlar to‘plamining ixtiyoriy bo‘laklashlari uchun davriy p-adik taqsimotlar mavjudligining zaruriy sharti topilgan bo‘lib, topilgan p-adik davriy taqsimotlar orasida p-adik Bernulli taqsimotlari yo‘qligi isbotlangan;

p-adik sonlar to‘plamining shunday bo‘laklashi topilganki, bu bo‘laklashga nisbatan Bernulli taqsimotlari davriy bo‘ladi va bunday davriy p-adik Bernulli taqsimotlarining umumiy ko‘rinishi keltirilgan;

Bete panjarasidagi haqiqiy qiymatli Gibbs o‘lchovlari nazariyasining ba’zi usullaridan foydalanib, bir nechta p-adik taqsimotlarni qurish usulini p-adik hol uchun taklif qilingan va p-adik taqsimotlarning chegaralanganligi tadqiq etilgan.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.02/30.12.2019.FM.86.01
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
ИНСТИТУТЕ МАТЕМАТИКИ ИМЕНИ В.И.РОМАНОВСКОГО

ИНСТИТУТ МАТЕМАТИКИ

ТУГЁНОВ ЗОХИД ТОЛИБОВИЧ

ПОСТРОЕНИЕ ПЕРИОДИЧЕСКИХ МЕР НАД НЕАРХИМЕДОВЫМИ НОРМИРОВАННЫМИ ПОЛЯМИ

01.01.01 – Математический анализ

АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИМ НАУКАМ

Ташкент-2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве Высшего образования, Науки и Инноваций Республики Узбекистан за № B2023.1.PhD/FM834

Диссертация выполнена в Институте Математики имени В.И.Романовского.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (http://kengash.mathinst.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Аюпов Шавкат Абдуллаевич** доктор физико-математических наук, академик
Официальные оппоненты:	**Кудайбергенов Каримберген Кадирбергенович** доктор физико-математических наук, профессор **Саттаров Искандар Абу-алиевич** доктор философии по физико-математическим наукам
Ведущая организация:	**Национальный университет Узбекистана**

Защита диссертации состоится « 25 » апреля 2023 года в 16:00 часов на заседании Научного совета DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 при Институте Математики имени В.И. Романовского. (Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазарский район, ул. Университетская, 9.Тел.: (+99871) 207-91-40, e-mail: uzbmath@umail.uz, Website: www.mathinst.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института Математики имени В.И. Романовского (зарегистрирована за № 158). (Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазарский район, ул. Университетская, 9.Тел.: (+99871) 207-91-40).

Автореферат диссертации разослан « 11 » апреля 2023 года.
(протокол рассылки № 2 от « 11 » апреля 2023 года).

У.А. Розиков
Председателя Научного совета
по присуждению ученых степеней,
д.ф.-м.н., профессор

Ж.К. Адашев
Ученый секретарь Научного совета
по присуждению ученых степеней,
д.ф.-м.н., старший научный сотрудник

У.У.Жамилов
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, д.ф.-м.н., старший научный сотрудник

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Многие научные и практические исследования, проводимые во всем мире, очень часто сводятся к исследованию неархимедовых моделей квантовой механики. Теория p-адического интегрирования – одна из важнейших частей неархимедова анализа. Для интегрирования важны свойства распределения. В течение нескольких столетий математика и теоретическая физика развивались на основе действительных (а затем и комплексных) чисел. Важнейшим допущением во многих системах измерения является аксиома Архимеда. Вполне естественно предложить описание мира в терминах p-адической арифметики и ультраметрической геометрии. Свойство периодичности распределения позволяет изучать периодические процессы. Периодические p-адические распределения являются основным объектом в теории фазовых переходов для неархимедовых моделей квантовой механики.

В настоящее время наибольший интерес представляют вероятностные меры со значениями в поле p-адических чисел. Обобщения таких мер были мотивированы развитием квантовых моделей с неархимедовозначными (и, в частности, со значениями в поле p-адических чисел) волновыми функциями. Неархимедовые вероятностные модели представляют и самостоятельный интерес. В частности, они использованы в p-адической схеме Бернулли для описания катаклизмов, ситуаций типа: «хорошо, хорошо, ..., катастрофа». Кроме того, эти меры применяются в p-адических стохастических моделях вымирания биологической популяции, динамика развития которой является «вполне благополучной», с точки зрения стандартной (колмогоровской) теории вероятностей. Актуальность данной тематики следует из этих примеров, большого приложения мер над неархимедово нормированными пространствами.

В нашей стране в последние годы усилился интерес к актуальным направлениям фундаментальных наук, имеющих научное и практическое применение. Ведется ряд исследований по неархимедовым аналогам статистической механики и неархимедовой теории вероятностей. Вследствие этого актуальным становится получение значимых результатов в исследовании ультраметрических пространствах. В частности, особое внимание было уделено развитию теории ультраметрических мер, являющейся основным объектом изучения задач ультраметрической статистической физики и механики. Проведение научных исследований на уровне международных стандартов по приоритетным направлениям математических наук, а именно по таким важным направлениям, как функциональный анализ и математическая физика, рассматривается в качестве основной задачи фундаментальных исследований[1].

[1] Постановление Президента Республики Узбекистан, от 09.07.2019 г. № ПП-4387 «О мерах государственной поддержки дальнейшего развития математического образования и науки, а также коренного совершенствования деятельности Института Математики имени В.И. Романовского Академии наук Республики Узбекистан»

